


# ISTE'MOL BOZORI

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 11,0 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 144,2 %ga o'sdi.

## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shaxri (10,4 %ga), Andijon (7,4 %ga), Xo'jaobod (5,8%ga) va Paxtaobod (5,1 %ga) tumanlarida. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Ulug'nor (2,0%ga), Oltinko'l (2,9 %ga) va Asaka (3,0ga) tumanlarida kuzatildi.

### Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (29,4 %), Shaxrixon (15,3 %), Asaka (10,4%), Qo'rg'ontepa (8,2 %) va Andijon (5,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,5 % ga oshib, 3052,6 ming so‘mni tashkil etdi (2017 yil 2425,3 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Andijon shahri (6328,5 ming so‘m), Shaxrixon (4919,9 ming so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida (3645,9 ming so‘m) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 104,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2,6 %ga o‘tdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,1 %ni tashkil etdi.

<b>Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi</b>		
	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>3052,6</b>	<b>104,5</b>
Andijon sh	6328,5	109,0
Honobod sh	1931,7	103,6
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	2028,2	105,3
Asaka	3061,4	101,0
Baliqchi	2110,9	102,9
Buloqboshi	2045,0	101,9
Bo‘z	1701,7	101,4
Jalaquduq	2061,1	103,3
Izboskan	1820,4	102,9
Ulug‘nor	1537,1	100,2
Marhamat	1496,7	101,8
Oltinko‘l	1773,8	101,0
Pahtaobod	2204,6	103,1
Ho‘jaobod	1459,0	102,4
Shaxrixon	4919,9	104,0
Qo‘rg‘ontepa	3645,9	102,5

## KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 77,0 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 5616,6 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning eng katta ulushi Ho'jaobod -91,5 %, Bo'z -88,9 %, Jalaquduq tumanlarida -87,6 %, Qo'rg'ontepa -86,9 %, Oltinko'l -85,7 % va Ulug'nor -85,5 %. Eng past ulush Andijon shahrida -59,4 % va Andijon tumanida - 78,9 % qayd etildi.

## 2018 yil yanvar - noyabr oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar - noyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1570,8 mlrd. soʻmni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 111,7%ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan Boʻz tumanida 103,1%ga kamayish kuzatildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 11,2% oʻsdi va 897,9 mlrd. soʻmga etdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 57,2 % ni tashkil qildi.

